# HUDUDLAR IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BAHOLASHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI

**Matyakubova Nargiza Mir'aliyevna**
*Osiyo Xalqaro Universiteti*
*"Iqtisodiyot" kafedrasi 1-bosqich magistri*

Jahon iqtisodiyotida xizmatlar sektori barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy tarmoqlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmatlar ulushining oshib borishi iqtisodiyotning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilayotganini anglatadi. Xizmatlar sohasida yuqori qo'shilgan qiymat yaratilishi, aholi bandligini ta'minlash va inson kapitali rivojiga ta'sir ko'rsatishi uning strategik ahamiyatini yana-da kuchaytiradi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni kompleks rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiy nazariyada inson kapitali tushunchasi alohida o'rin tutadi. Inson kapitaliga investitsiya kiritish g'oyasi ilmiy jihatdan Gary Becker tomonidan asoslab berilgan bo'lib, unga ko'ra ta'lim va sog'liqni saqlash xarajatlari iste'mol emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy samara beruvchi investitsiya hisoblanadi. Sog'lom aholi yuqori mehnat unumdorligi, kamroq ish kuni yo'qotish va yuqori daromad manbai demakdir. Shu nuqtai nazardan, tibbiy xizmatlarni hududiy darajada kengaytirish iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida qaraladi.

Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muammolari va omillariga ko'ra, hududlarni tadqiq etishning yo'nalishlari va metodologik konsepsiyalari farq qiladi. Bunday baholash natijalari ham hududlar rivojlanishida notekis tendensiyalarning mavjudligini tasdiqlaydi. Buning sabablari hududlarning qulay geografik joylashuvi, tabiiy resurslar va iqlim sharoitlari, infratuzilma ob'ektlarining rivojlanganlik darajasi va boshqa omillar bilan bir qatorda hududlarda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasi va bunda "mahalla" va "sektor"larning roli bilan bog'liqligi asoslantirilgan. Ushbu uslubiy yondashuvlarga tayangan holda, bizning tadqiqotimizda hududlarni rivojlantirishda xizmatlar sohasining roli va bu jarayonlarda davlat xususiy sherikchiligining ahamiyati o'rganildi.

Hududlarda xizmatlar sohasi rivojlanishini baholash, o'z tarkibiga ko'ra savdo, tashish va saqlash, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, axborot va aloqa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish kabi faoliyat turlarini qamrab oladi. Xizmatlar sohasi faoliyatining yakuniy natijasi ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bilan belgilanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishini baholash bu boradagi muhim chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, mazkur tadqiqotda xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishini hududlar kesimida baholash asosiy maqsad etib belgilandi.

Bunda hududlarning o‘rni aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmi bo‘yicha aniqlandi va quyidagi ko‘rsatkichlar orqali hisoblandi:

- hisobot davrida doimiy aholi o‘rtacha yillik soni (ming kishi);
- hisobot davrida ko‘rsatilgan xizmatlari hajmi (mlrd. so‘m).

Hududlarning xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishini tavsiflovchi xususiy ko‘rsatkichlari rasmiy statisika ma’lumotlari asosida shakllantirildi. Bunda, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmi quyidagi formula orqali hisoblandi.

Hududlarni rivojlantirish va bu jarayonlarda xizmatlar sohasining rolini oshirishga oid tadqiqotimiz natijalari asosida quyidagi ilmiy-nazariy xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

birinchidan, hududlarni rivojlantirishning muhim ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari tizimi qo‘shimcha rivojlantiruvchi omillar ta’sirini hisobga olib yondashish zaruratini ko‘rsatmoqda;

ikkinchidan, tadqiqot natijalariga asoslanib shunday xulosaga kelindiki, hududlar rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini aniqlashda hamon qarama-qarshi fikrlar uchraydi. Chunki hududlarni ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirishning turli xil metodologik yondoshuvlarida turlicha ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanib, hududlar iqtisodiyotining u yoki bu sohasi baholangan. Shuning uchun tadqiqot natijalarini boshqa tadqiqotlar bilan solishtirish imkoni bo‘lmadi;

uchinchidan, o‘rganilgan tadqiqotlarda hududlar rivojlanishida davlat xususiy sherikchiligining o‘rni va ahamiyati hisobga olinmagan. Shu bois hududlarning rivojlanishiga oid tadqiqot natijalarini sinergetika tamoyillari asosida birlashtirish yoki umumlashtirishda qiyinchiliklar uchradi;

to‘rtinchidan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar mazmunidan kelib chiqqan holda, xizmat ko‘rsatish sohasida DXShni rolini oshirish orqali hududlarning rivojlanishini baholash ham muhim vazifa lardan hisoblanadi. Bu borada tadqiqot uchun to‘plangan ma’lumotlar DXSh faoliyatining ishlab chiqarish, qurilish va qishloq xo‘jaligi sohalarining rivojlanishidagi rolini baholash uchun yetarli bo‘lmadi. Shuning uchun keyingi tadqiqotlarda ushbu sohalarda ham DXShni o‘rni va rolini baholash bo‘yicha tadqiqotlar olib borish vazifasi belgilandi. Bunda xizmat ko‘rsatish sohasining barcha faoliyat turlari bo‘yicha DXSh asosidagi loyihalarni baholash, hududlarning “xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishida DXShning roli” indeksi bo‘yicha hududlarni toifalash mezonlarini ishlab chiqish keyingi tadqiqotlarning vazifalari sifatida belgilandi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Джумаева, З.К. (2026). ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТЕХНОПАРКОВ В УСЛОВИЯХ ЮЖНОЙ КОРЕИ: УРОКИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА. Библиотека статей Шоха , 1 (1), 1032-1034.
2. Джумаева, З.К. (2025). ЗАРУБЕЖНЫЕ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ. БИБЛИОТЕКА ШОХА , 1 (13).
3. Jumayeva, Z. Q., & Izatova, N. N. (2025). GLOBALLASHUV SHAROITIDA O ‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI O ‘TKAZISHNING MUHIMLIGI. Modern Science and Research, 4(6), 492-496.
4. Jumayeva, Z. Q. (2025). IMPLEMENTATION OF TRANSFORMATION PROCESSES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN UNDER COMPETITIVE CONDITIONS. AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT, 3(6), 57-64.
6. Джумаева, З. (2025). НОВАЯ ТЕОРИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА: ЭВОЛЮЦИОННЫЙ ПОДХОД. Международный журнал искусственного интеллекта , 1 (1), 869-873.
7. Джумаева, З. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. Международный журнал искусственного интеллекта , 1 (1), 483-488.
8. Jumayeva, Z. Q., & Izatova, N. N. (2025). GLOBALLASHUV SHAROITIDA O ‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI O ‘TKAZISHNING MUHIMLIGI. Modern Science and Research, 4(6), 492-496.
9. Джумаева, З. (2025). НАУЧНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МОТИВАЦИОННЫХ ФАКТОРОВ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. Международный журнал искусственного интеллекта , 1 (4), 1571-1574.
10. Джумаева, З.К. (2025). РЕАЛИЗАЦИЯ ТРАНСФОРМАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ КОНКУРЕНЦИИ. AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT , 3 (6), 57-64.
11. Джумаева, З. (2025). ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ МЕСТНЫХ ПРОИЗВОДИТЕЛЕЙ С ПОМОЩЬЮ МЕТОДОВ МАРКЕТИНГА. Международный журнал искусственного интеллекта , 1 (4), 105-107.

12. Жумаева, З. К. (2024). Инвестиционная Активность Как Основной Элемент Организационно-Экономического Механизма Маркетинга Территории. Miasto Przyszłości, 55, 1411-1417.

13. Джумаева, З. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. Международный журнал искусственного интеллекта , 1 (1), 483-488.

14. Жумаева, З. К. (2024). Мобильный Маркетинг Как Эффективное Средство Стимулирования Сбыта Товаров И Услуг. Miasto Przyszłości, 54, 697-702.

15. Жумаева, З. К. (2024). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ ИНДУСТРИЙ КАК ФАКТОР РОСТА НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: ОБЗОР ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.

16. Джумаева, З. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. Международный журнал искусственного интеллекта , 1 (1), 483-488.

17. Джумаева, З.К., и Гулямова, Н.Г. (2025). O 'ZBEKISTONDA MINTAQANI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH. ТЕОРИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ВСЕГО МИРА , 1 (5), 152-159.

18. Жумаева, З. К., & Ахмедова, Ф. Р. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(7), 323-330.

19. Jumayeva, Z.Q., & Matkarimov, G. (2025). MINTAQADA FAOL INVESTITSIYA SIYOSATINI IQTISODIYOT TARMOQLARINI O ‘SISHIGA TA’SIRI. ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION, 1(6), 205-212.

20. Джумаева, ZQ (2017). ТЕОРИИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СТАБИЛЬНОСТИ НА РЫНКАХ ТРУДА РАЗВИТЫХ СТРАН. Инновационное развитие , (4), 64-66.

21. Джумаева, З.К., Мамаджонов, Г.Н. (2024). Пути усиления финансового контроля за использованием средств государственного бюджета. Европейский журнал бизнес-стартапов и открытого общества , 4 (1), 61-64.

22. Nematovna R. N. Tourism and digitalization: achievements and challenges for the future //Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 40-44.

23. Расулова Н. Н. Государственная поддержка развития малого бизнеса и предпринимательства в Узбекистане //Ученый XXI века. – 2017. – №. 2-2.

24. РАСУЛОВА Н. Н. Роль и развитие малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане //Поколение будущего: Взгляд молодых ученых-2015. – 2015. – С. 288-292.

25. Расулова Н. Н. Динамика и роль иностранного инвестирования в развитии экономики Узбекистана за годы независимости //ББК 65.0501 С 56. – 2018. – С. 269.